INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION
ISSN 2181-371X
https://sr-journals.org/index.php/ITSE

IJTIMOIY DAVLAT MODELI: NAZARIY TAHLIL VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Abbosova Ruxshoda Zokirovna
Mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. Mazkur maqolada ijtimoiy davlat modelining nazariy-huquqiy asoslari, uning tarixiy shakllanish jarayoni hamda zamonaviy rivojlanish tendensiyalari kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqotda ijtimoiy davlat tushunchasining mohiyati, asosiy prinsiplari va funksiyalari davlat va huquq nazariyasi nuqtai nazaridan yoritiladi. Xususan, ijtimoiy adolat, teng imkoniyatlar, ijtimoiy himoya va inson huquqlarining ustuvorligi tamoyillarining nazariy mazmuni ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy davlat, ijtimoiy siyosat, inson huquqlari, ijtimoiy himoya, davlat funksiyalari, globalizatsiya, raqamli transformatsiya, inklyuziv rivojlanish, ijtimoiy adolat.

Аннотация. В данной статье комплексно анализируются теоретико-правовые основы модели социального государства, процесс её исторического формирования, а также современные тенденции развития. В исследовании раскрывается сущность понятия социального государства, его основные принципы и функции с точки зрения теории государства и права. В частности, освещается теоретическое содержание принципов социальной справедливости, равных возможностей, социальной защиты и приоритета прав человека.

Ключевые слова: социальное государство, социальная политика, права человека, социальная защита, функции государства, глобализация, цифровая трансформация, инклюзивное развитие, социальная справедливость.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the theoretical and legal foundations of the social state model, its historical formation, and contemporary development trends. The study examines the essence of the concept of the social state, its fundamental principles, and functions from the perspective of the theory of state and law. In particular, it elaborates on the theoretical content of the principles of social justice, equal opportunities, social protection, and the priority of human rights.

Keywords: social state, social policy, human rights, social protection, state functions, globalization, digital transformation, inclusive development, social justice.

Kirish.

Mazkur maqolada ijtimoiy davlat modelining nazariy asoslari, uning tarixiy shakllanishi, asosiy prinsiplari hamda zamonaviy rivojlanish tendensiyalari tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi global ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar sharoitida davlatning ijtimoiy funksiyalari kuchayib borayotganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot maqsadi: ijtimoiy davlat modelining nazariy-huquqiy mohiyatini ochib berish va uning rivojlanish tendensiyalarini aniqlash.

Tadqiqotning vazifalari:

1. Ijtimoiy davlat tushunchasining nazariy asoslarini tahlil qilish.
2. Ijtimoiy davlat modelining tarixiy shakllanish bosqichlarini o‘rganish.
3. Zamonaviy ijtimoiy davlat modellari va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash.
4. Globalizatsiya sharoitida ijtimoiy davlat rivojlanish tendensiyalarini baholash.

Adabiyotlar tahlili. Ijtimoiy davlat konsepsiyasi davlat va huquq nazariyasida muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri sifatida shakllangan bo‘lib, uning nazariy asoslari XIX asr oxirlaridan boshlab tadqiq etila boshlagan. Ijtimoiy davlat g‘oyalarining dastlabki nazariy talqinlari nemis huquqshunos

olimi Lorenz von Stein asarlarida uchraydi. U davlatni jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikni yumshatish va ijtimoiy muvozanatni ta'minlashga qaratilgan institut sifatida talqin qilgan.

XX asrda ijtimoiy davlat nazariyasining rivojlanishida britaniyalik sotsiolog T. H. Marshall alohida o'rin tutadi. U fuqarolik institutining evolyutsiyasini tahlil qilib, fuqarolik huquqlarini uch bosqichga – fuqarolik, siyosiy va ijtimoiy huquqlarga ajratgan hamda ijtimoiy huquqlarni farovonlik davlatining asosiy elementi sifatida asoslab bergan.

Ijtimoiy adolat kategoriyasining nazariy asoslari esa amerikalik faylasuf John Rawls tomonidan ishlab chiqilgan. Uning "A Theory of Justice" asarida adolat tamoyillari ijtimoiy institutlar faoliyatining asosiy mezoni sifatida talqin etilib, teng imkoniyatlar va ijtimoiy tengsizlikni asoslash mezonlari ishlab chiqilgan. Mazkur konsepsiya ijtimoiy davlat modelining axloqiy-falsafiy poydevorini mustahkamladi.

Zamonaviy ijtimoiy davlat modellari tasnifi daniyalik olim Gosta Esping-Andersen tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u ijtimoiy davlatni liberal, konservativ-korporativ va sotsial-demokratik modellarga ajratadi. Ushbu tasnif bugungi kunda ham farovonlik davlatlarini qiyosiy tahlil qilishda asosiy metodologik asoslardan biri hisoblanadi.

Globalizatsiya sharoitida ijtimoiy davlatning transformatsiyasi masalalari Paul Pierson hamda Ramesh Mishra tadqiqotlarida tahlil qilingan. Ular farovonlik davlatining iqtisodiy bosimlar, demografik o'zgarishlar va bozor munosabatlari kuchayishi sharoitida qayta shakllanish jarayonlarini yoritib bergan.

Shuningdek, ijtimoiy davlat konsepsiyasi konstitutsiyaviy-huquqiy jihatdan ko'plab davlatlar asosiy qonunlarida mustahkamlangan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlatning ijtimoiy yo'nalganligi prinsipi belgilangan bo'lib, bu milliy huquqiy tizimda ijtimoiy davlat modelining normativ asosini tashkil etadi. Yuqoridagi ilmiy manbalar ijtimoiy davlat nazariyasining shakllanishi, rivojlanishi va zamonaviy transformatsiyasini yoritishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, zamonaviy sharoitda raqamli transformatsiya va inklyuziv rivojlanish kontekstida ijtimoiy davlat modelini chuqurroq nazariy tahlil qilish zarurati saqlanib qolmoqda.

Metodologiya. Mazkur tadqiqot ijtimoiy davlat modelining nazariy-huquqiy mohiyatini ochib berish hamda uning rivojlanish tendensiyalarini aniqlashga qaratilgan bo'lib, kompleks metodologik yondashuv asosida amalga oshirildi. Tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlar qo'llanildi:

1. Dialektik metod – ijtimoiy davlat konsepsiyasining shakllanishi va rivojlanishi tarixiy jarayon sifatida o'rganildi. Ijtimoiy davlat modelining evolyutsiyasi, uning mazmunan boyishi va zamonaviy sharoitda transformatsiyasi sabab-oqibat bog'liqligi aniqlashtirildi.

2. Tarixiy-huquqiy metod – XIX asr oxiridan boshlab ijtimoiy davlat g'oyalarining shakllanish bosqichlari, xususan, Lorenz von Stein, T. H. Marshall hamda John Rawls qarashlari tahlil qilindi. Ushbu yondashuv ijtimoiy davlat konsepsiyasining nazariy ildizlarini aniqlash imkonini berdi.

3. Qiyosiy- huquqiy tahlil – zamonaviy ijtimoiy davlat modellari xususan, Gosta Esping-Andersen tomonidan taklif etilgan liberal, konservativ-korporativ va sotsial-demokratik modellar o'zaro taqqoslandi. Ushbu metod ijtimoiy davlatning turli milliy shakllarini tahlil qilish va ularning o'ziga xos jihatlarini aniqlashga xizmat qildi

4. Formal-yuridik metod – ijtimoiy davlatning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari o'rganildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlatning ijtimoiy yo'nalganligi prinsipi normativ-huquqiy jihatdan tahlil qilindi.

5. Tizimli-tahliliy metod – ijtimoiy davlat modeli murakkab institutlar tizimi sifatida ko'rib chiqildi. Ijtimoiy siyosat, ijtimoiy himoya, inson huquqlari va iqtisodiy mexanizmlar o'zaro bog'liq holda o'rganildi.

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

- dialektik metod;
- tarixiy-huquqiy metod;
- qiyosiy- huquqiy tahlil;
- formal-yuridik metod;

- tizimli-tahliliy metod.

Tadqiqot davomida normativ-huquqiy hujjatlar, fundamental ilmiy asarlar hamda zamonaviy siyosiy-huquqiy konsepsiyalar tahlil qilindi. Ushbu metodologik yondashuvlar majmui ijtimoiy davlat modelining nazariy mohiyatini har tomonlama yoritish va uning rivojlanish tendensiyalarini ilmiy asosda belgilash imkonini berdi.

Natijalar. Mazkur tadqiqot natijasida ijtimoiy davlat modelining nazariy-huquqiy mohiyati, strukturaviy elementlari hamda zamonaviy rivojlanish tendensiyalari tizimli ravishda aniqlashtirildi.

Ijtimoiy davlat tushunchasi faqat ijtimoiy yordam ko‘rsatuvchi davlat sifatida emas, balki ijtimoiy adolat, teng imkoniyatlar va inson huquqlarining real ta’minlanishini kafolatlovchi kompleks huquqiy-institutsional tizim sifatida talqin qilindi. Tadqiqot davomida ijtimoiy davlat modeli huquqiy davlat konsepsiyasi bilan uzviy bog‘liqligi asoslab berildi. Ya’ni, qonun ustuvorligi va inson huquqlarining kafolatlanishi ijtimoiy davlatning normativ poydevorini tashkil etishi ilmiy jihatdan asoslandi.

Tadqiqotning tarixiy-huquqiy tahlil natijasida ijtimoiy davlat evolyutsiyasining uch asosiy bosqichi aniqlashtirildi:

- dastlabki ijtimoiy sug‘urta davri;
- klassik “farovonlik davlati” bosqichi;
- globalizatsiya va raqamli transformatsiya sharoitidagi modernizatsiya bosqichi.

Mazkur bosqichlar ijtimoiy davlat funksiyalarining kengayishi va institutsional mexanizmlarining murakkablashuvi bilan tavsiflanishi ko‘rsatib berildi.

Ijtimoiy davlat – bu insonning munosib turmush darajasini ta’minlash, ijtimoiy tenglik va adolatni qaror toptirishga qaratilgan davlat modeli hisoblanadi. Mazkur tushuncha huquqiy davlat konsepsiyasi bilan uzviy bog‘liqdir. Nazariy jihatdan ijtimoiy davlat g‘oyalari Lorens fon Shtayn, Otto fon Bismark, Jon Rols, T.H. Marshall asarlarida rivojlantirilgan.

Ijtimoiy davlatning asosiy prinsiplari:

Prinsiplar	Tavsifi
Ijtimoiy adolat	Jamiyatda huquqlar, imkoniyatlar, daromadlar va resurslarning teng va adolatli taqsimlanishini ta'minlash.
Teng imkoniyatlar	Har bir insonning jinsi, millati, ijtimoiy kelib chiqishi yoki jismoniy holatidan qat’i nazar, jamiyatda ta’lim, mehnat, sog‘liqni saqlash va huquqiy himoyadan foydalanishda bir xil sharoit va kafolatlarga ega bo‘lishi.
Ijtimoiy himoya	Davlat tomonidan aholining zaif qatlamlarini (keksalar, nogironlar, kam ta’minlanganlar) qo‘llab-quvvatlash hamda ijtimoiy tengligini ta’minlanishi.
Inson huquqlarining ustuvorligi	Davlat, jamiyat va huquq tizimida inson manfaatlari, uning hayoti, erkinligi, qadr-qimmati eng oliy qadriyat hisoblanishi hamda barcha qonuniy normalar inson foydasiga talqin etilishi.
Davlatning ijtimoiy mas’uliyati	Davlatning o‘z fuqarolari oldidagi majburiyatlari inson qadri, ijtimoiy adolat va teng imkoniyatlar asosida munosib yashash sharoitlarini yaratish, ehtiyojmand qatlamni qo‘llab-quvvatlash hamda aholi farovonligini oshirishini ta’minlash.

Huquqiy davlat prinsiplari – qonun ustuvorligi, hokimiyatlar bo‘linishi, inson huquqlarining kafolatlanishi – ijtimoiy davlatning institutsional asosini tashkil etadi. Ijtimoiy davlat konsepsiyasi XIX asr oxirida Germaniyada ijtimoiy sug‘urta tizimining joriy etilishi bilan amaliy shaklga ega bo‘ldi. XX asrda Yevropa davlatlarida “farovonlik davlati” (welfare state) modeli rivojlandi.

Gosta Esping Andersen tasnifiga ko‘ra, ijtimoiy davlatning uch asosiy modeli mavjud: liberal, konservativ-korporativ va sotsial-demokratik model. Zamonaviy sharoitda ijtimoiy davlat raqamli xizmatlar, elektron hukumat, ijtimoiy xizmatlarning innovatsion shakllari orqali rivojlanmoqda.

Inson kapitaliga investitsiyalar (ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoya) ijtimoiy davlat barqarorligining asosiy omilidir. Zamonaviy ijtimoiy davlat kambag‘allikni qisqartirish, gender tengligi va ijtimoiy inklyuziyani ta’minlashga qaratilgan. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida davlatning ijtimoiy yo‘nalganligi mustahkamlangan. Ijtimoiy himoya, bandlik, kambag‘allikni qisqartirish siyosati ijtimoiy davlat tamoyillariga asoslanadi.

Muhokama.

Mazkur tadqiqot natijalari ijtimoiy davlat modelining nazariy asoslari davlat va huquq nazariyasining markaziy kategoriyalari bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatdi. Xususan, ijtimoiy davlat konsepsiyasi huquqiy davlat tamoyillaridan ajralgan holda mavjud bo‘la olmasligi aniqlandi. Bu jihat John Rawls tomonidan ilgari surilgan adolat tamoyillari bilan hamohangdir. Rawlsning fikricha, ijtimoiy institutlar adolat mezonlariga javob berishi zarur, bu esa ijtimoiy davlatning normativ asosini mustahkamlaydi. Shu bilan birga, ijtimoiy davlat modellari tipologiyasi bo‘yicha Gosta Esping-Andersen tomonidan taklif etilgan tasnif bugungi kunda ham dolzarbligini saqlab qolmoqda. Biroq tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli transformatsiya va global iqtisodiy integratsiya sharoitida mazkur klassik tasnif yetarli darajada to‘liq emas. Ayniqsa, ijtimoiy xizmatlarning raqamlashtirilishi va davlat boshqaruvining elektron shaklga o‘tishi ijtimoiy davlatning yangi – “raqamli ijtimoiy davlat” elementlarini shakllantirmoqda. Ba’zi olimlar globalizatsiya sharoitida farovonlik davlati zaiflashib borayotganini ta’kidlasa (masalan, Paul Pierson), boshqa tadqiqotchilar uning transformatsiya bosqichiga o‘tganini e’tirof etadi. Mazkur tadqiqot natijalari ikkinchi yondashuvni qo‘llab-quvvatlaydi. Ya’ni, ijtimoiy davlat o‘z funksiyalaridan voz kechmayapti, balki ularni yangi iqtisodiy va texnologik sharoitlarga moslashtirmoqda.

Muhokama jarayonida yana bir muhim jihat aniqlanadiki, ijtimoiy davlat modelining samaradorligi nafaqat normativ-huquqiy asosga, balki institutsional boshqaruv sifati va inson kapitaliga investitsiyalar darajasiga ham bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston Respublikasi sharoitida amalga oshirilayotgan ijtimoiy islohotlar ijtimoiy davlat tamoyillarini mustahkamlashga qaratilgan bo‘lsa-da, ularning samaradorligi boshqaruv mexanizmlarining shaffofligi va manzillilik darajasi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijasida ijtimoiy davlat modelining nazariy rivojlanishida quyidagi ochiq masalalar mavjudligi aniqlandi:

- ijtimoiy adolat mezonlarining universal yoki milliy xususiyatga egaligi;
- davlat va bozor o‘rtasidagi optimal nisbat muammosi;
- raqamli texnologiyalar sharoitida ijtimoiy tenglikni ta’minlash mexanizmlari.

Umuman olganda, muhokama natijalari ijtimoiy davlat modelining zamonaviy davlat nazariyasida dinamik va evolyutsion xarakterga ega bo‘lib, uning rivojlanishi global iqtisodiy jarayonlar, demografik o‘zgarishlar hamda texnologik innovatsiyalar bilan uzviy bog‘liqligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosa.

Mazkur tadqiqot natijasida ijtimoiy davlat modeli davlat va huquq nazariyasining muhim konseptual yo‘nalishlaridan biri ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi. Tadqiqot davomida ijtimoiy davlat tushunchasining nazariy mohiyati, uning asosiy prinsiplari hamda tarixiy evolyutsiyasi tizimli ravishda tahlil qilindi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi sharoitida ijtimoiy davlat konsepsiyasining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari mustahkamlanib borayotgani, ijtimoiy himoya va kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan islohotlar mazkur modelning amaliy ifodasi sifatida namoyon bo‘layotgani ta’kidlandi.

Umumiy qilib aytganda, ijtimoiy davlat modeli zamonaviy davlat nazariyasida barqaror rivojlanish, ijtimoiy barqarorlik va inson kapitalini yuksaltirishning muhim omili sifatida namoyon bo‘ladi. Kelgusida ushbu konsepsiyani chuqurlashtirish, ayniqsa raqamli transformatsiya va inklyuziv rivojlanish kontekstida nazariy hamda amaliy tadqiqotlarni kengaytirish dolzarb ilmiy vazifa bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 01.05.2023-yil
2. O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 30-apreldagi Mehnat kodeksi.
3. B. Keles, N. McCrae, and A. Grealish, “A systematic review: The influence of social media on depression, anxiety and psychological distress in adolescents,” Int. J. Adolesc. Youth, vol. 25, no. 1, pp. 79–93, 2020.
4. A. M. Khalaf, A. A. Alubied, and A. A. Rifaey, “The impact of social media on the mental health of adolescents and young adults: A systematic review,” Cureus, vol. 15, no. 8, p. e42990, Aug. 2023.
5. P. M. Valkenburg, A. Meier, and I. Beyens, “Social media use and its impact on adolescent mental health: An umbrella review of the evidence,” Curr. Opin. Psychol., vol. 44, pp. 58–68, Apr. 2022.Esping-Andersen G. The Three Worlds of Welfare Capitalism. Princeton University Press, 1990.
6. Rawls J. A Theory of Justice. Harvard University Press, 1971.
7. Mishra R. Globalization and the Welfare State. Edward Elgar, 1999.
8. Pierson P. Dismantling the Welfare State. Cambridge University Press, 1994.